



# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Ismatullaeva Dilnavoz Shavkatullo qizi*  
*Termiz Davlat Universiteti 4-kurs talabasi*  
[dilnavosimatullaeva@gmail.com](mailto:dilnavosimatullaeva@gmail.com)  
*Ergashova Iroda Yo'ldoshevna*  
*Termiz Davlat Universiteti 4-kurs talabasi*  
[ergashovairoda122@gmail.com](mailto:ergashovairoda122@gmail.com)

## Annotation

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarni o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llashning o'rni, o'qitish davomida kompiyuter texnologiyalardan foydalanish, chet tillarini o'rganishning o'ziga hos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, interfaol metod, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, multimedia, animatsiya, innovatsion usullar.

## Anotatsion

In this article, the role of using modern innovative technologies in the teaching of primary classes, the use of computer technologies during teaching, and the specific features of learning foreign languages are highlighted.

**Key words:** Innovation, interactive method, modern computer technologies, multimedia, animation, innovative methods.

Ta'limning samaradorligini oshirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash bugungi kunning talabidir. Boshlang'ich ta'lim umumtalim maktablarning bosh bo'g'ini hisoblanadi. Ularni boshlang'ich sinfdan mukammal shaxs qilib tarbiyalashni boshlash zarur, chunki bolaning aqliy salohiyati rivojlanishi ayni shu davrdan boshlanadi. Bolalar mакtabga qadam qo'yishlari bilan o'qishga sho'ng'ib ketishadi. Keyinchalik darslarning bir tempda o'tilishi, har kuni bir xillik takrorlanishi oquvchini zeriktirib, fanlarga bo'lgan munosabatni salbiy tomonga o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar o'z darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishlari maqsadga muvofiq.

Innovatsiya (ing. Innovation)- kiritilgan yangilik, ixtiro, yangilikdir. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda talim mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, ta'limning uslub, shakl va vositalarining majmuasi tushuniladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich ta'limda rivojlantirish juda kata ahamiyatga ega. Chunki motiv oquvchilarni dars jarayoniga qiziqtiradi darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar



o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Kichik yoshdagagi bolalarga faqat kitobdagi ma'lumotlarni o'qib-o'rgatib tushuntirishdan ko'ra mavzuni sodda, oson va kam vaqt sarflanadigan o'yin mashqalaridan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Oddiygina yaratgan o'yin mashqimiz ham ular uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Shuningdek, o'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi, videoli turli ko`rinishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Har bir fan uchun turli o'yin mashqlarini metodlarni qo'llash mumkin. Masalan, o'qish darsida "Yosh suxandon", "Topib o'qi", "Venn diagrammasi", "Zinama-zina", "Sinkveyn" metolari kabi texnologiyardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga bu texnologiyalar yoqadi va ularning o'zlari ham mustaqil shunga o'xshash o'yinlar yaratishga harakat qilib izlanadilar. Bu esa o'quvchilar bilimining, aqlining o'sishiga zamin yaratadi.

Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda texnik vositalarning jumladan zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlashi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan imkoniyatlarini takomillash ulardan foydalanish yetuk olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Dars jarayonida texnika texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchini darsdan chetlashtirib qo'yish emas, balki, uning yana-da serqirra ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni oshirishi mumkin:

- boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

- ta'limning bunday usuli oquvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va oquv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;

- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga kora ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish, ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'l shining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallahsha o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini mustaqil o'rganish va fikrlashga o'rgatib, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda yana bir ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o`qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi.

So'ngi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har xil yoshdagি odamlar juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Kattalarga nisbattan bolalar tez til o'rganadilar Bolalarning vaqtning ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalar asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari tog'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
3. Tolipov U.K, Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - T., Fan, 2012.
4. Yo'ldoshev J. G., Usmonov S.A Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008.